



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA MUSIQA MASHG'ULOTLARI ORQALI BOLALARDA ESTETIK DIDNI SHAKLLANTIRISH

Mamatova Shoxruza Komiljonovna

*Navoiy inovatsiyalar universiteti Ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrası
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida musiqa mashg'ulotlarining bolalar estetik didini shakllantirishdagi o'rni va ahamiyati yoritib berilgan. Bolalarning hissiy-emotsional rivojlanishi, go'zallikni idrok etish qobiliyatini rivojlantirishda musiqaning tarbiyaviy imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, musiqa mashg'ulotlarini tashkil etishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar va metodik tavsiyalar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *estetik did, musiqa mashg'ulotlari, maktabgacha ta'lim, bola tarbiyasi, musiqiy idrok.*

Аннотация. *В данной статье освещается роль и значение музыкальных занятий в формировании эстетического вкуса детей в дошкольных образовательных организациях. Проанализированы воспитательные возможности музыки в развитии эмоционально-эмоционального развития детей, умения воспринимать красоту. Данной статье освещается роль и значение музыкальных занятий в формировании эстетического вкуса детей в дошкольных.*

Ключевые слова: *эстетический вкус, музыкальные занятия, дошкольное образование, воспитание ребенка, музыкальное восприятие.*

Annotation. *This article highlights the role and importance of music lessons in shaping the aesthetic taste of children in preschool educational institutions. The educational possibilities of music in the development of children's emotional development and the ability to perceive beauty are analyzed. This article highlights the role and importance of music lessons in shaping the aesthetic taste of preschool children.*

Keywords: *aesthetic taste, music lessons, preschool education, child rearing, musical perception.*

Maktabgacha yosh davri bola shaxsining shakllanishida eng muhim bosqich hisoblanadi. Ayniqsa, ushbu davrda bolada estetik did, go'zallikni his etish, san'atga bo'lgan qiziqishni tarbiyalash keyingi ta'lim bosqichlari uchun mustahkam poydevor yaratadi. Shu ma'noda musiqa mashg'ulotlari bolalarning estetik tarbiyasida alohida o'rin tutadi⁴⁵.

Musiqa inson ruhiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatib, bolaning his-tuyg'ulari, tafakkuri va ijodiy faolligini rivojlantiradi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida olib boriladigan musiqa

⁴⁵ Abduraxmonov A. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2021. – 45–47-betlar.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



mashg'ulotlari orqali bolalarda nafaqat musiqiy qobiliyat, balki estetik did, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat shakllanadi⁴⁶.

Bola shaxsini shakllantirish jarayonida musiqa muhim o'rin tutadi. Musiqa bolaning ongi va bilim darajasini kengaytiradi, uni hayotni aks ettiruvchi boy ijrolar dunyosiga olib kiradi, hissiy bilish faoliyatini, hayotga faol munosabatini o'stiradi, san'atga muhabbat uyg'otadi, didni o'stiradi. Musiqa tinglaganda shaxsiy mulohazalarning paydo bo'lishiga, o'z fikrini aytish ehtiyojining tug'ilishiga yordam beradi, unda harakat manba paydo bo'ladi va ijrochilik mahoratini o'stiradi.

Bolaning musiqaviy faoliyati, ya'ni musiqa asarlarni idrok etish, ularning ijro etilishi orqali qo'shiq aytish, raqsga tushish, biron bir musiqa cholg'u asbobi orqali ko'rsatib berish kabi xilma-xil ijodiy ko'rinishlarda namoyon bo'ladigan faoliyat paydo bo'ladi. Musiqa mashg'uloti eng avvalo, bolalarga muhabbat va qiziqishni o'stirishga yo'llangandir. Bolada tinglangan musiqa, qo'shiq, raqsga nisbatan tug'ilgan hissiy javob ularni yaxshiroq tushunishga va egallashga yordam beradi, musiqa asarlarning nafaqat, aqliy, balki ahloqiy va ma'naviy rejada ham tarbiyaviy ahamiyatini kuchaytiradi. Bu qiyin va uzoq muddatli mehnat talab qiladigan bolada musiqa, qo'shiq aytish, musiqa ting-lashga e'tibor paydo bo'lgandan boshlab, unda asarning mazmuni va shakli o'rtasidagi bog'liqlik aloqani tushunishga, uni ifodali ijro etishgacha davom etadigan jarayondir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bola-larni musiqa mashg'uloti orqali, musiqa tinglash, qo'shiq aytish, musiqali ritmik harakat, raqs, musiqaga oid ma'lumot berish, bolalar musiqa cholg'u asboblari bilan tanishtirish, musiqaviy ta'limiy o'yinlar bilan tanish-tiriladi. Bola ijrochilik malakalarini egallar ekan, u ma'naviy boyiydi, unda badiiy mahoratni xis qilish, musiqa usullarini sezish qobiliyati o'sadi⁴⁷. Yakka ijrochilik ko'rinishlarini izlashga undaydi, asarning mazmuniga va ko'rinishiga o'z munosabatini ifodalashga yordam beradi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning musiqali rivoj-lanishida musiqa mashg'ulotlari yetakchi o'rin tutadi. Mashg'ulotlar turli xil musiqali faoliyat turlarini o'z ichiga oladi. Bolalar bunday faoliyat bilan shug'ullanib, musiqani idrok qilishning dastlabki ko'nikmalarini va shuningdek, musiqali ijrochilik ko'nikmalarini hosil qilishadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasida musiqa tarbiya alohida ahamiyat kasb etib, muntazam ravishda olib boriladigan tarbiya jarayonining bir qismini tashkil etadi. Musiqa, qo'shiq, milliy musiqa, bola tarbiyasiga benihoyat katta ta'sir ko'rsatib, ularda yuqori darajadagi badiiy, ma'naviy zavq va didni shakllantiradi, go'zallikni musiqa orqali idrok etishda yetakchi o'rin o'ynaydi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga musiqa tarbiya berishda musiqa tinglash, vokal, ya'ni qo'shiq ijrochiligi, milliy musiqa asboblari, bastakor va kompozitorlar hayoti, ularni ijodlari, musiqaga oid ma'lumotlar berish, musiqaviy ritmik xarakter va raqs asoslari bilan tanishtirish, bolalarda ijodiy qobiliyatlarini

⁴⁶ Karimova M. Estetik tarbiya nazariyasi. – Toshkent: Fan, 2019. – 62–65-betlar.

⁴⁷ Yunusova N. Musiqa orqali bolalarni tarbiyalash metodikasi. – Toshkent, 2022. – 28–30-betlar.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



aniqlash va rivojlanitirish, musiqa vositalari orqali bolalar tarbiyasini shakllantiish kabi vazifalar amalga oshiriladi⁴⁸.

“Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturda⁴⁹ maktabgacha ta’limda musiqiy tarbiya metodikasi fanining nazariy jihatlari asoslab berilgan. Maktabgacha ta’limda musiqa tarbiyasi metodikasi o‘quv fanini o‘zlashtirish uchun zarur bo‘lgan birlamchi ma’lumotlar yoritilgan. Ushbu dastur maktab-gacha yoshdagi bolalarga musiqa tarbiyasini olib borishda musiqa mashg‘uloti-ning maqsadi va vazifalari, davlatimiz tomonida shu soha bo‘yicha qabul qilingan Farmon va Qarorlarning mazmuni, maqsadi, shaxsning kamolatini rivojlantirishda musiqa tarbiyasining o‘rni, musiqa mashg‘ulotlarini xususiyatlari va tuzilishi, musiqa o‘qitish metodikasining tutgan o‘rni haqidagi umumiy ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan.

Estetik did — bu insonning go‘zallikni anglash, baholash va undan zavq olish qobiliyatidir. Maktabgacha yoshda estetik did bolaning atrof-muhitni idrok etishi, ranglar, tovushlar, harakatlar va obrazlarga bo‘lgan munosabati orqali shakllanadi⁵⁰.

Bolada estetik didning rivojlanishi:

- hissiy barqarorlikni;
- ijodiy tafakkurni;
- ma’naviy-axloqiy sifatlarni;
- san’at va madaniyatga qiziqishni kuchaytiradi.

Musiqa mashg‘ulotlari bolalarning emotsional holatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatib, ularda nafosatni his etish qobiliyatini rivojlantiradi. Qo‘shiq aytish, musiqani tinglash, ritmik harakatlar va musiqiy o‘yinlar orqali bolalar tovushlar go‘zalligi, ohang va ritmni farqlashni o‘rganadilar⁵¹.

Musiqa mashg‘ulotlari jarayonida:

bolalar musiqiy asar mazmunini his qiladilar;
obrazli tafakkur rivojlanadi;
estetik taassurotlar boyiydi;
milliy musiqa orqali milliy o‘zlik anglanadi.

Musiqa rahbarining ijodkorligi va kasbiy mahorati estetik didni shakllantirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida musiqa mashg‘ulotlari bolalarda estetik didni shakllantirishning samarali vositasi hisoblanadi. Musiqa orqali bolalar go‘zallikni his qilish, san’atni anglash va ijodiy faollikka intilishni o‘rganadilar.

⁴⁸ Ismoilova D. Maktabgacha yoshdagi bolalarda musiqiy idrokni rivojlantirish. – Toshkent, 2020. – 51–53-betlar.

⁴⁹ O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi. – Toshkent, 2018. – 14–18-betlar.

⁵⁰ Karimova M. Estetik tarbiya asoslari. – Toshkent, 2019. – 33–35-betlar.

⁵¹ Abdullayeva S. Maktabgacha ta’limda musiqa rahbarining pedagogik mahorati. – Toshkent, 2021. – 40–42-betlar.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Shuning uchun musiqa mashg‘ulotlarini mazmunan boyitish, zamonaviy metodlar asosida tashkil etish maktabgacha ta’lim tizimining muhim vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abduraxmonov A. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2021. – 45–47-betlar.
2. Karimova M. Estetik tarbiya nazariyasi. – Toshkent: Fan, 2019. – 62–65-betlar.
3. Yunusova N. Musiqa orqali bolalarni tarbiyalash metodikasi. – Toshkent, 2022. – 28–30-betlar.
4. Ismoilova D. Maktabgacha yoshdagi bolalarda musiqiy idrokni rivojlantirish. – Toshkent, 2020. – 51–53-betlar.
5. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi. – Toshkent, 2018. – 14–18-betlar.
6. Karimova M. Estetik tarbiya asoslari. – Toshkent, 2019. – 33–35-betlar.
7. Abdullayeva S. Maktabgacha ta’limda musiqa rahbarining pedagogik mahorati. – Toshkent, 2021. – 40–42-betlar.

